



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI**

**MINISTRY OF HEALTH OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN  
TASHKENT MEDICAL ACADEMY**

100109, Toshkent sh., Farobiy ko'chasi -2-uy. Tel.: (+998-78) 150-78-25, (+998-71) 214-83-11 Fax: (+998-78) 150-78-28  
Website: www.tma.uz, e-mail: info@tma.uz

2024 yil "8" aprel

01-15459 - son

**Toshkent tibbiyat akademiyasi Ilmiy kengashi yig'ilishining  
9-sonli BAYONI**

Toshkent shahar

«28» mart 2024-yil

**Raislik qiluvchi: III.A.Боймуродов**

Toshkent tibbiyat akademiyasi

Rektori в.в.б, professor

**Qatnashdilar:**

Toshkent tibbiyat akademiyasining

Ilmiy kengashi a'zolari

(ro'yxat bo'yicha)

**KUN TARTIBI**

1. Toshkent tibbiyat akademiyasida (keyingi o'rinnlarda – Akademiya) 2023-2024 o'quv yili kuzgi semestrda talabalarining fanlar bo'yicha o'zlashtirish va sifat ko'rsatkichlarining tahlili. Muammolar va takliflar.

Ma'ruzachi – O'quv ishlari bo'yicha prorektor Boymuradov Shuxrat Abdujalilovich.

2. Xalqaro fakultet hisoboti.

Ma'ruzachi – Xalqaro fakultet dekani Tursunov Djahangir Xusanovich.

3. Professor-o'qituvchilarni tanlov asosida lavozim va ilmiy unvonlarga saylash.

Ma'ruzachi – Tanlov komissiyasi raisi.

4. Dissertatsiya, monografiya va o'quv-uslubiy ishlar mavzularini tasdiqlash.

Ma'ruzachi – O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i Azizova Feruza Xusanovna, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Muminova Ziyoda Abrarovna.

5. Turli masalalar.

**Kun tartibi ovozga qo'yildi va bir ovozdan maqullandi.**

## **QAROR QILADI:**

1. Kun tartibining birinchi masalasi bo'yicha "2023-2024 o'quv yili kuzgi semestrda talabalarning fanlar bo'yicha o'zlashtirish va sifat ko'rsatkichlarining tahlili. Muammolar va takliflar" mavzusi yuzasidan O'quv ishlari bo'yicha prorektori Boymuradov Shuxrat Abdujalilovichning ma'lumoti axborot va ijro uchun qabul qilinsin (ma'ruza matnda keltirilgan).

**1.1.Akademianing HEMIS platformasiga fan resurslarini to'liq yuklanishi ta'minlansin va nazoratga olinsin.**

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i R.I.Turakulov, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2024- yil aprel.**

1.2.Barcha fanlar bo'yicha HEMIS platformasiga davomat va baholarni o'z vaqtida qo'yilishi ta'minlansin va nazoratga olinsin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i R.I.Turakulov, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2024- yil aprel.**

1.3.Kredit-modul tizimida ta'lim olayotgan semestrdagi fanlar bo'yicha (1-3 kurs kredit modul tizimi) talabalarni bilimini baholash (JN, ON va YaN) mezonlariga to'liq rivoja qilinishi ta'kidlab o'tilsin va nazoratga olinsin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i R.I.Turakulov, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023-2024 o'quv yili davomida.**

1.4.Barcha kafedra mudirlari tomonidan guruuhlar kesimida o'zlashtirish ko'rsatkichlarini muntazam ravishda muhokama qilinishi, qaydnomalarga imzo qo'yishda alohida e'tiborliligi bo'lishi (aks holda semestr yakuni bo'yicha talabalarni baholaridan noroziligi mavjud bo'lishi kuzatilmasligi maqsadida) ta'kidlab o'tilsin. (talabalar tomonidan norozilik mavjud kafedralar: informatika, tibbiy radiologiya, jamoat salomatligi va sog'liqni saqlashni boshqarish).

**Mas'ul: fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023-2024 o'quv yili davomida.**

1.5. Akademianing barcha ta'lim yo'nalishlarida o'quv jarayoni 3 tilda (o'zbek, rus va ingliz), shu jumladan elektron shaklda, zamonaviy adabiyotlar bilan to'liq boyitilishi, yangi adabiyotlar yaratilishi bo'yicha buyurtmalar shakllantirilishi, xarid qilinishi hamda ijrochi va muddati aniq belgilangan holda bajarilishi ta'minlansin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, Bosh hisobchi B.I. Alijonova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2024-yil mart - may.**

1.6.Barcha fanlar bo‘yicha kafedralarda va simulyatsion markazda bajaraladigan amaliy ko‘nikmalar tasdiqlangan ruyxati bo‘yicha olib borilishi nazoratga olinsin, shuningdek yetishmayotgan asbob-uskuna va jihozlar bo‘yicha takliflar kiritilsin.

**Mas’ul: O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i F.X.Azizova, Simulyatsion kafedrasi mudiri D.A.Parpibayeva, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2024- yil aprel.**

1.7. Akademiyada faoliyat yuritayotgan Yosh pedagoglar maktabining ishini kuchaytirish bo‘yicha takliflar kiritilsin. Shuningdek, xorijiy guruhlarga ingliz tilida dars beradigan pedagoglarni soni va sifatini ko‘tarish maqsadida ularni Akademianing Til markazida tayyorlash jarayoni kuchaytirilsin.

**Mas’ul: O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i F.X.Azizova, Xorijiy fakultet dekani J.X.Tursunov, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023-2024 o‘quv yili davomida.**

1.8.Ta’lim sifatini yanada ko‘tarishda Akademianing professor-o‘qituvchilari o‘z malakalarini vaqtida oshirishlari, o‘quv jarayonida zamonaviy adabiyotlar, pedagogik va raqamlashtirilgan texnologiyalardan, jumladan Akademianing kutubxonasidan unumli foydalanishlari kuchaytirilishiga alohida e’tibor qaratishlari, shuningdek, dars jarayonida fanlar kesimida asosiy va qo‘srimcha adabiyotlarni talabalardan talab qilishlari ta’milansin.

**Mas’ul: kafedra mudirlari, barcha professor-o‘qituvchilar.**

**Muddat: 2023-2024 o‘quv yili davomida.**

2. Kun tartibining ikkinchi masalasi bo‘yicha “Xalqaro fakultet hisoboti” mavzusi yuzasidan Xalqaro fakultet dekani Tursunov Djahangir Xusanovichning hisoboti qoniqarsiz deb hisoblansin (ma’ruza matnda keltirilgan).

2.1.Xalqaro fakultetga qarashli kafedralarida ta’sil oluvchi barcha ta’lim yo‘nalishlari uchun moddiy-texnik bazasini kuchaytirish maqsadida o‘quv va laboratoriya jihozlari, maxsus o‘quv asbob va anjomlar bo‘yicha kiritilgan takliflar xarid komissiyasi tomonidan ko‘rib chiqilsin.

**Mas’ul: O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Moliya va iqtisod bo‘yicha prorektor S.I.Do‘stmuradov, O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i F.X.Azizova, Xalqaro fakulteti dekani D.X.Tursunov.**

**Muddat: 2024 – yil aprel .**

2.2.Akademiyada yangi ochilishi rejalashtirilayotgan qo‘shma ta’lim dasturlari bo‘yicha o‘quv jarayonini, shu jumladan elektron shaklida, zamonaviy adabiyotlar bilan to‘liq boyitilishi bo‘yicha ishlar amalgaga oshirilsin .

**Mas’ul: O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i F.X.Azizova, Xalqaro fakulteti dekani D.X.Tursunov.**

**Muddat: 2024 - yil aprel - avgust.**

2.3.Akademiyada yangi ochilishi rejalashtirilayotgan qo‘shma ta’lim dasturlari uchun kadrlar tayyorlash maqsadida kasbga yo‘naltirilgan targ‘ibot va saralash ishlari olib borilishi ta’milansin .

**Mas’ul: O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i F.X.Azizova, Xalqaro fakulteti dekani D.X.Tursunov, fakultet dekanlari , kafedra mudirlari .**

**Muddat: 2023-2024 o‘quv yili davomida.**

2.4.Akademianing bakalavriatura va magistratura yo‘nalishlarida ta‘lim olayotgan iqtidorli talabalar orasida diplomdan keyingi ta‘lim (magistratura va doktorantura)ni munosib kadrlar bilan bo‘yitish maqsadida selektsiya ishlari olib borilishi ta’milansin .

**Mas’ul: O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i F.X.Azizova, Xalqaro fakulteti dekani D.X.Tursunov, Iqtidorli talabalar bilan ishslash bo‘limi boshlig‘i F.B.Abdumalikova.**

**Muddat: 2023-2024 o‘quv yili davomida.**

2.5.Xalqaro fakultetning ilmiy salohiyatini oshirish maqsadida har bir xodimning o‘quv - ilmiy mahsulotlar yaratish vazifalarini bajarilishini monitoringi va nazorat qilinishi ta’milansin .

**Mas’ul: O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalr bo‘yicha prorektor F.I.Azizova, Xalqaro fakulteti dekani D.X. Tursunov.**

**Muddat: 2023-2024 o‘quv yili davomida.**

2.6.Xalqaro fakultet tomonidan davlat va xorijiy ilmiy grant-loyihalari tanlovlardida faol qatnashishlari hamda xo‘jalik shartnomalar bo‘yicha ishlar olib borilishi ta’milansin .

**Mas’ul:O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Xalqaro fakulteti dekani D.X.Tursunov.**

**Muddat: 2023-2024 o‘quv yili davomida.**

3.Kun tartibining keyingi masalasi “Professor-o‘qituvchilarni tanlov asosida lavozim va ilmiy unvonlarga saylash” bo‘yicha ilmiy kotib G.A.Ismailova-Yuz-jag‘ jarrohligi va stomatologiya kafedrasi mudiri lavozimiga Sh.A.Boymuradov, **professor** ilmiy unvoniga talabgorlar: 14.00.09 – Pediatriya ixtisosligi bo‘yicha Bolalar kasalliklari kafedrasi professori, t.f.d. M.X.Mirraximova, 14.00.34- Yurak va qon-tomir xirurgiyasi ixtisosligi bo‘yicha 1-son fakultet va gospital jarrohlik kafedrasi professori A.A.Irnazarov, **dotsent** ilmiy unvoniga talabgorlar: 14.00.05 – Ichki kasalliklar ixtisosligi bo‘yicha Klinik modellashtirish kafedrasi dotsenti, tibbiyot fanlari nomzodi N.D.Salimova, 14.00.13 - Nevrologiya ixtisosligi bo‘yicha Nevrologiya va tibbiy psixologiya kafedrasi dotsenti, tibbiyot fanlari doktori D.S.Tolipovlar - tomonidan ariza tushganligi haqida ma’lumot berdi va hujjatlari bilan kengash a’zolarini tanishtirdi. So‘ng saylov o’tkazildi (saylov hay’ati a’zolari va natijalari 1-ilovada keltirilgan).

4.Kun tartibining keyingi masalasi “Dissertatsiya, monografiya va o‘quv-uslubiy ishlar mavzularini tasdiqlash” bo‘yicha O‘quv-uslubiy bo‘limi boshlig‘i F.X. Azizova va Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i Z.A.Muminova tasdiqlash uchun taqdim etilgan ilmiy mahsulotlar hamda dissertatsiya mavzulari bilan tanishtirdi. (2-va 3-ilovada keltirilgan) va tasdiqlash uchun ovozga quyildi.

5.Turli masalalar bo'yicha Xalqaro aloqalar bo'yicha prorektor J.D.Israilov, Yoshlar masalalari va ma'naviy – ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor T.A.Bobomuratov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Z.A.Muminova so'zga chiqdilar.

5.1. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzurida Innovatsion rivojlanish agentligining ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida bajariladigan amaliy tadqiqotlar va innovatsion loyihalarni qabul qilish uchun "Olima ayollar" tanlovi 86-turiga taqdim qilinayotgan kuyidagi loyihalar:

- Atrof muhit gigyenasi kafedrasi mudiri F.I.Salomova rahbarligida "Aeron xavf va ko'kalamzorlashtirish darajasini hisobga olib, turar-joy mavzelari havo basseynini optimallashtirish va aholi salomatligini muhofazalash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish" nomli grant loyihasi Innovatsion rivojlanish vazirligida taqdim etishga tavsiya etilsin.

- Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi xodimi t.f.n. Sh.K.Muftaydinova rahbarligida "Endometrioz kasalligini og'riqli hayz mavjud bo'lgan o'smir qizlarda IT texnologiyalar yordamida prognozlash" nomli grant loyihasi Innovatsion rivojlanish vazirligida taqdim etishga tavsiya etilsin.

- 2-son travmatologiya, ortopediya, XDX va neyroxiturgiya kafedrasi professori S.U.Asilova rahbarligida "Разработка ранней диагностики и новой технологии хирургического лечения и реабилитации повреждений и заболеваний крупных суставов" nomli grant loyihasi Innovatsion rivojlanish vazirligida taqdim etishga tavsiya etilsin.

5.2. Dermatovenerologiya va kosmetologiya yo'nalishi 2-kurs magistr talabasi Parpiev Bekzod Rustamjon o'g'li Xindiston Respublikasi Gujorat shtatidagi "Sankalchand Patel University (SPU)" 3-oylik (muddati: 2024-yil aprel-iyun) malaka oshirish kursiga taklif etilishi munosabati bilan ushbu muassasaga stajirovkaga borib kelishiga tavsiya etilsin.

5.3. 2023-yil qishki ta'til davrida, anomal sovuq sababli hamda ta'til vaqtining o'zgarishi natijasida Talabalar turar joyida yashovchi talabalar yanvar oyi bo'yicha to'lanadigan 1 oylik to'lovdan ozod qilinsinlar. Asos:Akademiya Yoshlar Ittifoqi va Talabalar kengashining murojaatnomasi.

**Mas'ul: Yoshlar masalalari va ma'naviy – ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor T.A.Bobomuratov, Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor S.I.Dustmurodov, Talabalar turar joyi direksiysi direktori S.O'. Ro'zmetov.**

**Muddat: 2024 - yil 28- iyun.**

5.4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdag'i "Atoqli adiblar va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini yoshlar o'rtasida targ'ib qilish hamda Adiblar xiyobonidan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 502-sonli qarori, TTAning Zulfiya nomidagi maxsus stipendiyasini ta'sis etish to'g'risidagi yangi tahrirdagi Nizomi talablariga muvofiq 2023-yilda TTAning Zulfiya nomidagi ko'krak nishoni sohibi bo'lgan 1-son davolash fakulteti 310-guruh (202) talabasi Abduvosiyeva Mushtariy Ismoil qizi, 1-son davolash fakulteti 401-guruh (301) talabasi Bobonazarova

Malika Nurbek qizi hamda Pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati va tibbiy pedagogika fakulteti 301-guruh (201) talabasi Shavkatova Ismigul Sharif qizi TTAning Zulfiya nomidagi ko'krak nishoni va guvohnomasi bilan taqdirlansin.

**Mas'ul: Yoshlar masalalari va ma'nnaviy ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor T.A.Bobomuratov, fakultet dekanlari.**

**Muddat: 2024-yil aprel oyi.**

5.5. Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi direktori Sh.R.Rajabbayev tomonidan joriy yil 27-28-mart kunlari Oliy ta'lifdan keyingi ta'lif bilan bog'liq Ilmiy darajali kadrlarni tayyorlash sifatiga qaratilgan kengaytirilgan yig'ilishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-sonli qaror talablariga muvofiq doktorantura, tayanch doktorantura uchun kvota/o'rinnlar muhokama qilinganligi ma'lumot o'rinda qabul qilinsin.

Belgilansinki, 2023-o'quv yili uchun shartli ravishda tavsiya etilgan talabgor doktorantlar (17 nafar) joriy yil 25-iyunga (iyun oyidagi navbatdagi 12-sonli Ilmiy Kengash) qadar til bilish sertifikatini (B2) taqdim qilish vazifasi yuklatilsin, aks holda, Innovatsion rivojlanish agentligi ko'rsatmalariga muvofiq doktorantlar safidan chetlatish masalasi kiritilsin.

**Mas'ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Z.A.Muminova, kafedra mudirlari, ilmiy rahbarlar.**

**Muddat: 2024-yil iyun oyi.**

**5.6.Toshkent tibbiyot akademiyasi bakalavr ta'lif yo'naliislari hamda magistratura mutaxassisliklarini 2023/2024-o'quv yili bitiruvchilari Yakuniy davlat attestatsiyasi raislari, tegishli ta'lif yo'naliislari, mutaxassisliklar hamda tegishli fanlar kesimida quyida keltirilgan tarkibda tasdiqlansin:**

1. Davolash ishi ta'lif yo'naliishi – 5510100, Toshkent davlat stomatologiya instituti O'quv ishlari bo'yicha prorektori, t.f.d., professor Baymakov Sayfiddin Risbayevich;

2. Tibbiy profilaktika ishi ta'lif yo'naliishi – 5510300, Tibbiyot xodimlari kasbiy malakasini rivojlantirish markazi kafedra mudiri, t.f.d., professor Zaredinov Damir Arifovich;

3. Xalq tabobati ta'lif yo'naliishi – 5511100, Toshkent pediatriya tibbiyot instituti 1-sonli gospital pediatriya, xalq tabobati kafedrasi dotsenti, t.f.d., Aliyeva Nigora Rustamovna;

4. Kasb ta'limi: Tibbiy pedagogika ta'lif yo'naliishi – 5111003, Respublika ixtisoslashtirilgan terapiya va reabilitologiya ilmiy amaliy markazi davolash ishlari bo'yicha direktor o'rinosari, t.f.d., Muminov Qodir Pulatovich;

5. Tibbiy biologik ish ta'lif yo'naliishi – 5510900, Toshkent davlat stomatologiya instituti Tibbiy va biologik kimyo kafedrasi professori, t.f.d., Xodjimetov Abdugafur Axatovich;

6. Magistratura mutaxassisliklari bo'yicha: RIT va TRIATM gastroenterologiya bo'limi rahbari, t.f.d., professor Karimov Mirvosit Mirvositovich;

7. O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi fani (3 yillik mutaxassisliklarga) bo‘yicha: O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq (mintaqaviy) markazi direktori f.f.d, dotsent Tilovov O‘ktam G‘ulomovich;

8. Sog‘liqni saqlash menejmenti fani (2 yillik mutaxassisliklarga) bo‘yicha: Toshkent davlat stomatologiya instituti Jamoat salomatligi, sog‘liqni saqlashni boshqarish va jismoniy madaniyat kafedrasи professori, t.f.d. professor Rustamova Xamida Yelimesovna.

**Qaror bir ovozdan maqullandi va tasdiqlandi. Ilmiy Kengash o‘z ishini yakunladi.**

**Rektor v.v.b.**



**Sh.Boymuradov**

Ijrochi: G.Ismailova  
ID: 540729  
Sana: 08.04.2024